



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 315 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождидинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймуратова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarini	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlilo'imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim hususiyatlari.....	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari.....	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha.....	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
Suv resurslari ustidan nazorat va mintaqaviy siyosat: O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari.....	311
Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li, Egamberdiyev Muzaffar	



SUV RESURSLARI USTIDAN NAZORAT VA MINTAQAVIY SIYOSAT: O'RTA OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDAGI IQLIM ZIDDIYATLARI



Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar)
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: abubakr11@bk.ru
Orcid: 0009-0001-1976-7215



Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot
fakulteti dotsent v.b. (PhD)
E-mail: 20muzaffar@mail.ru
Orcid: 0009-0005-2122-0752

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi suv resurslari bilan bog'liq ziddiyatlar, ularning siyosiy va iqtisodiy sabablari, iqlim o'zgarishining ta'siri, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy va institutsional yondashuvlar tahlil qilinadi. Suv resurslarining adolatli taqsimoti, iqlim xavfsizligi va transc chegaraviy boshqaruv muammolari chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, suv siyosati, transc chegaraviy resurslar, iqlim o'zgarishi, mintaqaviy hamkorlik, huquqiy tartibot.

Abstract: This article analyzes the conflicts over water resources among Central Asian countries, their political and economic causes, the impact of climate change, as well as legal and institutional approaches aimed at strengthening regional cooperation. The issues of equitable distribution of water resources, climate security, and transboundary governance are covered in depth.

Key words: Central Asia, water policy, transboundary resources, climate change, regional cooperation, legal order.

Аннотация: В статье анализируются конфликты из-за водных ресурсов между странами Центральной Азии, их политические и экономические причины, влияние изменения климата, а также правовые и институциональные подходы, направленные на укрепление регионального сотрудничества. Подробно рассматриваются вопросы справедливого распределения водных ресурсов, климатической безопасности и трансграничного управления.

Ключевые слова: Центральная Азия, водная политика, трансграничные ресурсы, изменение климата, региональное сотрудничество, правовой порядок.

KIRISH

O'rta Osiyo mintaqasi suv resurslariga nihoyatda boy, ammo bu boylik ayni paytda ziddiyat manbaiga aylangan. Amudaryo va Sirdaryo daryolari havzasi mintaqadagi asosiy suv manbai hisoblanadi. Suvdan



foydalanish bo'yicha mavjud muammolar tarixiy, siyosiy va ekologik omillar bilan bog'liq. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi tufayli suv miqdorining kamayishi, qishloq xo'jaligi ehtiyojlarining ortishi va davlatlararo ishonch muammolari ushbu mavzuni dolzarb qilmoqda.

O'rta Osiyo - O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston o'rtasidagi suv resurslarini boshqarishdagi siyosiy-iqtisodiy muammolar, iqlim ziddiyatlari har doim e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bugungi Markazdagi davlatlar o'rtasida strategik aloqalar va do'stlik rishtalari mustahkamlanayotgan ayni vaqtda bu masalalarni huquqiy mexanizmlar orqali hal qilish yo'llari muhim jarayondir [1].

Amudaryo va Sirdaryo – mintaqadagi asosiy daryolar bo'lib, ularning havzalari bir nechta davlat hududidan o'tadi. Daryolarning suv manbalari asosan tog'li davlatlar – Tojikiston va Qirg'izistonda joylashgan, suvdan asosiy iste'molchilar esa – O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston hisoblanadi. Bu holat mintaqadagi suv resurslarining transchegaraviy xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, suvning manbai bir davlatda joylashgan bo'lsa-da, undan foydalanish ehtiyoji bir necha boshqa davlatlarga tegishli. Natijada, suvdan foydalanish masalasi faqat tabiiy emas, balki siyosiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sovet Ittifoqi davrida yagona boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan Tog'li davlatlar — Tojikiston va Qirg'iziston, daryo havzalarida joylashgan bo'lib, qishki davrda suvni to'plab, yozda esa tekislikdagi davlatlarga — O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonga sug'orish uchun suv uzatishgan. Buning evaziga ular energetik resurslar (neft, gaz) va boshqa imtiyozlarga ega bo'lishgan. Biroq, Sovet Ittifoqi parchalangach, har bir davlat o'z manfaati yo'lini belgiladi va bu orqali ushbu tizim izdan chiqdi. Markaziy Osiyodagi qo'shnilar esa, mustaqil siyosat yurita boshladi. Masalan, tog'li davlatlar gidroelektr stansiyalar qurishga intilsa, pastki oqimdagi davlatlar esa irrigatsiya uchun suvni doimiy olishni xohlaydi. Bu esa suvdan foydalanishda siyosiy kelishmovchiliklarga sabab bo'ldi [2].

Iqlim o'zgarishi — bu global miqyosdagi muammo bo'lib, deyarli har bir davlatga turlicha darajada ta'sir qiladi. Biroq, Markaziy Osiyo davlatlari uchun bu jarayon jiddiy xavflarni keltirib chiqaradi, chunki mintaq suvga qaram, qurg'oqchil va ekologik muvozanat nozik hudud hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, Iqlim o'zgarishi mintaqada suv resurslarining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Muzliklarning erishi, yog'ingarchilikning kamayishi, haroratning ortishi — daryo suvlari sathining kamayishiga olib kelmoqda. Masalan, so'nggi 30 yillikda Pomir va Tyan-Shan muzliklarining 20% dan ortig'i erib ketgan. Iqlim o'zgarishi nafaqat suv miqdorini, balki uning mavsumiy taqsimotini ham o'zgartirib yuboradi. Bu esa qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minoti uchun katta xavf tug'diradi. Har bir davlat suv tanqisligi sharoitida o'z manfaatini himoya qilishga urinmoqda, bu esa ziddiyatlarni kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari masalasiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, statistic tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar

Iqlim o'zgarishi mamlakatning quyidagi sohalarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi:

Qishloq xo'jaligi — Haroratning oshishi, yomg'ir miqdorining kamayishi va qurg'oqchilik hosildorlikni pasaytiradi.

Suv resurslari — Muzliklar tezroq eriydi, bu esa dastlab suv oqimining ortishiga, keyin esa keskin kamayishiga olib keladi.

Ekotizimlar va biologik xilma-xillik — Iqlimdagi o'zgarishlar o'simlik va hayvonot dunyosining muvozanatini buzadi.

Aholi salomatligi — Issiq to'lqinlar, chang bo'ronlari va suv tanqisligi aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot — Energetika, sug'orish tizimi va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ichki va mintaqaviy barqarorlik — Resurslar tanqisligi ijtimoiy keskinlik va davlatlararo ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin [3].

Bu holat Markaziy Osiyo davlatlari uchun qanchalik xavfli?

Suv resurslari kamayadi. Mintaqadagi daryo suvlari asosan tog'dagi muzliklardan hosil bo'ladi. Iqlim isishi tufayli bu muzliklar tezroq erimoqda, bu esa kelajakda daryo suvlari kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi davlatlar — O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston bundan jiddiy zarar ko'radi.

Orolbo'yi fojiasi yanada chuqurlashadi. Orol dengizi allaqachon ekologik inqirozga uchragan. Iqlim o'zgarishi bu hududda chang bo'ronlari, sho'r tuproqlar va qurg'oqchilik xavfini yanada kuchaytiradi.



Mintaqa aholisi asosan qishloq xo'jaligiga tayanadi. Suv tanqisligi va ob-havoning o'zgaruvchanligi hosildorlikka salbiy ta'sir qiladi. Bu esa oziq-ovqat tanqisligi va narxlarning o'sishiga olib kelishi mumkin [4].

Tojikiston va Qirg'iziston energiya ishlab chiqarishda gidroelektr stansiyalariga tayangan. Iqlim o'zgarishi suv darajasini pasaytirs, bu davlatlarning elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatlarini cheklaydi.

Aholining migratsiyasi. Iqlim o'zgarishi tufayli qurg'oqchilik, ishsizlik va yashash sharoitlarining yomonlashuvi natijasida odamlar boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'lishi mumkin. Bu esa ijtimoiy bosim va resurslar uchun kurashni kuchaytiradi. Bu holatda Markaziy Osiyodagi davlatlar ma'lum muammolarga quyidagicha yechim berishlari mumkin.

O'zbekiston tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish, qishloq xo'jaligida kam suv talab qiluvchi ekinlarga o'tish, yashil energiya (quyosh va shamol) loyihalarini rivojlantirish, transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda diplomatik yondashuv orqali iqlim o'zgarishlarining ta'sirini yumshatishi mumkin [2].

Qozog'iston yaylovlarni tiklash va muhofaza qilish dasturlari, iqlimga moslashgan agrar siyosat yuritish karbon chiqindilarini kamaytirish (ya'ni, "dekarbonizatsiya" siyosati) orqali, Turkmaniston suvni tejaydigan infratuzilma yaratish, ekologik qonunchilikni kuchaytirish va monitoringni yaxshilash, ichki va mintaqaviy ko'p tomonlama ekologik hamkorlik yaratish orqali, Tojikiston GESlar qurilishida mintaqaviy kelishuvlar asosida harakat qilish, suv omborlarining xavfsizligini oshirish, suv energiyasidan foydalanishda ekologik me'yorlarni inobatga olish orqali, Qirg'iziston esa suv resurslarini hisobga olib rejalashtirish, muzliklarni kuzatish bo'yicha monitoring tizimlarini rivojlantirish, ekoturizmni rivojlantirish orqali ekologik ongni oshirish orqali kutilgan natijaga erishishi mumkin.

E'tiborli jihati shuki, ushbu ko'rsatilgan yechimlarni tatbiq qilish orqali O'rta Osiyoda har taraflama strategik aloqalar yanada rivojlanadi [5].

Suv resurslari ustidan nazorat bo'yicha xalqaro huquqiy asoslar mavjud. Xususan, 1997-yildagi BMTning "Transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish" to'g'risidagi Konvensiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu konvensiya davlatlar suvni oqilona, adolatli va barqaror tarzda taqsimlashi zarurligini belgilaydi. Bu masalaga chuqurroq yondashishdan avval "Transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish" to'g'risidagi konvensiya haqida ma'lumot berib o'tilishi o'rindir.

1997-yildagi BMTning "Transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi" (rasmiy nomi: United Nations Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses) – bu xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, transchegaraviy daryolar, ko'llar va boshqa suv manbalaridan foydalanish va ularni himoya qilish borasida davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soladi. Konvensiyaning asosiy maqsadi transchegaraviy suv oqimlaridan adolatli va oqilona foydalanishni, shuningdek, ularni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan saqlashni ta'minlashdan iborat [4].

Konvensiya ahamiyatli jihati shuki, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va siyosiy

keskinliklar fonida suv resurslarini boshqarishda xalqaro huquqiy asos yaratadi. Ko'plab davlatlar uchun transchegaraviy suv masalarini tinch yo'l bilan hal qilishga imkon beradi. Suv bo'yicha mintaqaviy shartnomalarni ishlab chiqish uchun asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi.

Shuni ham alohida aytib o'tish kerakki, O'zbekiston ushbu konvensiyaga rasman qo'shilmagan. Biroq mamlakat Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslaridan adolatli foydalanish va ulardan samarali boshqarish bo'yicha xalqaro tamoyillarni qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston suv bo'yicha qo'shni davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish tarafdori hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston bu sohada bir nechta muhim tashabbuslarni ilgari surgan:

Suv resurslarini muvofiqlashtirib boshqarish markazi yaratish;

Regional dialoglarni kuchaytirish;

Ekologik xavfsizlik va suv diplomatiyasiga oid xalqaro konferensiyalar o'tkazish [3].

Shunga qaramay, mintaqada suv bo'yicha to'liq ishlovchi kuchli xalqaro institutlar yo'q. Mavjud bitimlar esa ko'pincha majburiy kuchga ega emas. Mintaqaviy ziddiyatlar faqat o'zaro ishonch, shaffoflik va umumiy manfaatlar asosidagi hamkorlik orqali hal etilishi mumkin. Bu borada quyidagi yondashuvlarning muhimlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi:

Ma'lumot almashinuvi tizimi – real vaqt rejimida suv sathi, foydalanish miqdori bo'yicha ochiq statistikalar;

Texnologik yechimlar – suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish tizimlari, raqamli monitoring;

Yashil investitsiyalarni jalb qilish – xalqaro moliyaviy institutlar bilan loyihalar ishlab chiqish;

Integratsiyalashgan boshqaruv – Markaziy Osiyo Suv Komissiyasi yoki shunga o'xshash tuzilma orqali umumiy siyosat yuritish [2].

Shuningdek, Nil daryosi bo'yicha Afrika davlatlari o'rtasidagi muzokaralar, Yevropa Ittifoqidagi suv diplomatiyasi kabi xalqaro tajribalardan foydalanish foydali bo'ladi. O'rta Osiyoda suv resurslari ustidan nazorat masalasi murakkab va ko'p qirrali muammo hisoblanadi. Bu masalada siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillar



bir-biriga chambarchas bog'langan. Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi bu masalani yanada keskinlashtirmoqda. Bu borada qo'shni mamlakatlar orasida suv masalasi bo'yicha mustahkam huquqiy kelishuvlar tuzilishi zarur. Iqlim xavfsizligi bo'yicha mintaqaviy strategiyalar ishlab chiqilishi kerak bu esa Markaziy Osiyo Iqlim Hamkorligi Platformasini yaratish imkonini beradi. Ushbu platfora asosida davlatlar birgalikda iqlim siyosatini ishlab chiqishlari ko'zda tutiladi. Yashil texnologiyalar bo'yicha tajriba almashish ham mamlakatlar o'rtasida jadallashishi kerak bo'lgan sohalarda hisoblanadi. Ushbu tajriba orqali quyosh energiyasi, suv tejoyvchi texnologiyalar va boshqa masalalarni hal qilishda birlik yuzaga keladi. Keyingi masala esa Iqlimga qarshi birgalikdagi loyihalar. Ma'lumki, O'rta Osiyoda Orolbo'y masalasi ham alohida o'rin egallagan. Orolbo'yi hududlarini tiklash, o'rmonzorlar ekish, o'zaro ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rta Osiyo mintaqasida suv resurslari ustidan nazorat va ulardan foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki siyosiy xavfsizlik va ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omili hisoblanadi. Mintaqaning iqlimiy sharoiti, global isish va transchegaraviy suv resurslarining cheklanganligi davlatlar o'rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu ziddiyatlarning ildizi tarixiy taqsimot, ekologik inqiroz, demografik o'sish va milliy iqtisodiyotlarning suvga yuqori darajada bog'liqligi bilan chambarchas aloqador. Shu boisdan, O'rta Osiyo davlatlari suv resurslarini boshqarishda o'zaro hamkorlik va mintaqaviy siyosatning uyg'unlashuviga muhtojdir. Suvdan oqilona foydalanish, adolatli taqsimot, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro huquq normalariga amal qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy tinchlik va barqaror taraqqiyotning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.09.2023-yildagi 500-son "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiya. 03.12.2007.
3. CAREC Regional Water Cooperation Reports. 2020-2023.
4. Kayumov A.R. Transchegaraviy suv resurslari va ularning boshqaruvi. – Toshkent: TDIU, 2020.
5. EU Water Initiative in Central Asia. Mission impossible: the Team Europe Initiative on Water, Energy, and Climate in Central Asia. [July 11, 2023](#).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
